

FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOIIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Yusupov Rasuljon Malikovich

Tarix fanlari nomzodi, "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 1/108-guruhning talabasi, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Jamiyat, davlat, fuqaro, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy, shaxs, majburiyat, sivilizatsiyasi, davlat, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik.

Annotatsiya

Maqolada fuqarolik jamiyatining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati va ilk tasavvurlar, g'oyalar, ta'limotlar, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ham bo'lib borishi insoniyat tarixida kishilik jamiyatining yangi bosqichlariga qadam qo'yishiga sabablari yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda ko'p eshitayotgan siyosiy atamalardan biri bu "Fuqarolik jamiyati" atamasidir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati - davlat va jamiyatni shakllanishida asosiy o'rin egallaydi. Demak, Fuqarolik—shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs Fuqarolikka ega bo'lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularning amalga oshishini ta'minlash choralari ko'radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko'rsatadi. O'z navbatida, fuqarolar davlat qonunlari va qoidalarga so'zsiz rioya qiladilar, o'zlari uchun belgilangan majburiyatlarni bajaradilar. Bu huquq va majburiyatlar yig'indisi fuqaroning siyosiy-huquqiy maqomini tashkil etadi, fuqarolar ana shu maqom bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan ajralib turadilar. Fuqarolik asosan 2 yo'l bilan qabul qilinadi: tug'ilganlik dalili asosida ("filiatsiya") va naturalizatsiya yo'li bilan. Tug'ilish asosida Fuqarolikka qabul qilishda 2 xil qoida: "qon huquqi" va "tuproq huquqi" qoidasi qo'llaniladi. "Qon huquqi" deb nomlangan qoida shu davlatning fuqarolaridan tug'ilgan shaxsni fuqaro deb tan oladi (ayrim davlatlarda ota-onasining biri tegishli Fuqarolikka egaligi yetarli). Qaysi davlat hududida bu shaxsning tug'ilganligi ahamiyatga ega emas. "Tuproq huquqi" qoidasi, fuqaroligidan qat'i nazar, agarda shaxs mazkur davlat hududida tug'ilgan bo'lsa, unda o'sha shaxs fuqaro deb tan olinadi. Naturalizatsiya yo'li bilan Fuqarolikni qabul qilish mamlakatda yashab kelayotgan shaxsning Fuqarolikni olish to'g'risidagi iltimosi bilan bog'liqdir. Endi jamiyat, "Jamiyat" so'zi (lotincha: *socium* — „umumiy“) — kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida

amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mone keluvchi munosabatlardir. Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo'lmaydi.[1] Yuqorida zikr qilinganidek insonlar o'rtasidagi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar kishilik jamiyatini vujudga keltirgan bo'lsa, bu keyinchalik munosabatlarning murakkablashib borishi, ya'ni faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida ham bo'lib borishi insoniyat tarixida kishilik jamiyatining yangi bosqichlariga qadam qo'yishiga sabab bo'lib xizmat qildi. Bunga misol qilib, quyidagi nazariy qarashlarga to'xtalamiz, ya'ni insoniyat to'ldan urug'ga, urug'dan qabilaga, qabilalar ittifoqqa aylanib borganligini va so'ngida kishilik jamiyatining eng yuqori bosqichi bo'lgan davlat degan institutning vujudga kelganligini aytishimiz mumkin. Ana shu o'rinda ta'kidlash joizki, davlatning asosini jamiyat tashkil etadi va jamiyatsiz davlat bo'lmaydi. Tarixan davlat va jamiyat bir-biri bilan o'zaro uyg'unlikda rivojlanib keladi va bu ijtimoiy birliklarning eng oliy shakli bo'lib esa fuqarolik jamiyati hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati insonlar tomonidan asos solingan tarixiy taraqqiyotning, insoniyat sivilizatsiyasi madaniy-ma'rifiy yuksalishining yetuklik darajasidir. Fuqarolik jamiyati - har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir.[2] Tarixiy davrlarning yetuk jamiyatshunoslari tomonidan "Fuqarolik jamiyati" atamasiga ta'riflar berilib o'tilganligi barchamizga ma'lum.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning "Siyosat" asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtirdi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari — "fuqarolar" tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlarini bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Kant, Russo, Gegel, Popper ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.[3]

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar va ta'limotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hayotga joriy etilayotgan bo'lsa-da, ushbu hodisa va uni tashkil etgan tarkibiy unsurlar azal-azaldan insoniyat tafakkuriga begona bo'lmagan.[4] Ya'ni bu atama jamiyatshunos olimlar tomonidan yaratilgunga qadar va uni barpo etish davlatlarning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifasiga aylangunga qadar ham insonlar o'zlari bilmagan holda fuqarolik jamiyatini qurib, unda yashab yurganlar. Faqat u davrdagi davlat aralashmagan, ya'ni insonlarning o'zlari tomonidan qurilgan fuqarolik jamiyati bugungi kundagi fuqarolik jamiyatidan ancha farq qilgan, ya'ni unchalik murakkab bo'lmagan, sodda tashkil topgan. To'g'ri bugungi fuqarolik jamiyatimiz ham mukammal barpo etilgan deyolmaymiz, lekin davr o'tgan sari ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi jamiyatning barpo etishda ko'p jihatlarni inobatga olishlikni taqozo etmoqda. Bu kabi yangicha munosabatlarning vujudga kelishi, ya'ni murakkablashishi fuqarolik jamiyatini ham yangicha, davrga moslab qurish kerakligiga va undagi kamchiliklarni bartaraf etishlikka undaydi.

Fuqarolik jamiyatining mohiyatiga etibor qaratadigan bo'lsak, mohiyat jihatidan «fuqarolik jamiyati» iborasi ilmiy adabiyotlarda o'ziga xos alohida mazmun-ma'no kasb etib, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan yuqori darajada kamol topganligini, mukammallikka erishganligini anglatadi. Mazkur kategoriya vositasida tarixiy rivojlanish tajribasi asosida orttirilgan mezonlarga javob beruvchi jamiyatning yetukligi, oqilona uyushganligi, adolatligi va fozilligi izohlanadi.[5] Ko'rib turibsizki, fuqarolik jamiyati haqida ta'riflar turli olimlar tomonidan turlicha

berilgan, ya'ni ular o'zlarining fikrlaridan kelib chiqib tushunchaning mohiyatiga baho berganlar. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik jamiyati - bu haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy, tarixiy, huquqiy yodgorlik — Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiya ko'ra, "Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi", jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.[6] Bulardan tashqari fuqarolik jamiyatini barpo etilish faqat o'rta asarlarda emas, balki yangi davr tariximizda ham XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo Jadidchilik harakati namoyandalari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon va Siddiqiy Ajziy kabi bobolarimizning mushtarak g'oyalarida, faoliyatlarida, qilgan xizmatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Ular bu yo'lda yoshlarni savodli qilishga katta e'tibor qaratganlar, chunki jadidchilarimiz har qanday jamiyatning, davlatning kelajagi undan yetishib chiqadigan yoshlariga bog'liq ekanligini tushunib, anglab yetgan edilar. Ularning yangi usuldagi maktablar ochib, yoshlarga ta'lim berganliklarini, yoshlarni chet davlatlar(Germaniya, Rossiya kabilar)da o'qib kelishlarini yo'lga qo'yganliklarini va ularga homiylik qilganliklarini, shuningdek, xalqning yangiliklardan boxabar bo'lib borishlari va o'z haq-huquqlarni bilib, talab qilishni o'rganishliklari uchun bir qator gazeta va jurnallar chop etishni boshlaganliklari kabi buyuk xizmatlarini fuqarolik jamiyatimizning barpo qilishda katta ahamiyat kasb etgan deb aytganki mubolag'a bo'lmaydi.

Shular singari xalqparvar ajdodlarimiz tomonidan boshlab berilgan, insonlar manfaatlarini ustun bo'ladigan va qonun oldida hammaning tengligi ta'minlanadigan fuqarolik jamiyati barpo etishdek katta ahamiyatli yo'llarining davomi sifatida mustaqillikka erishgach, birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan qilingan bir qator ishlarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat va jamiyatni rivojlantirishning "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan eng muhim tamoyilini ro'yobga chiqarish borasida ko'lami jihatidan juda katta ish qilindi. Eng avvalo, fuqarolik jamiyati turli institutlari faoliyatining rivojlangan, g'oyat yuksak demokratik talablarga javob beradigan, hozirgi kunda 250 dan ortiq qonunni o'z ichiga olgan qonunchilik bazasi yaratildi. Shuningdek, ularning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasi nodavlat notijorat tashkilotlarni, ommaviy axborot vositalarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jadal rivojlantirish ishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yuksak demokratik standartlarga mos bo'lgan tizimi vujudga keldi.[7] Buning isboti ularoq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni kompleks o'rganish, tahlil qilish va baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, ularni yanada rivojlantirishga oid takliflarni ishlab

chiqish uchun ilmiy-amaliy maydon yaratish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashining samarali faoliyatini ta’minlash maqsadida “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 30-oktabrdagi PQ-4501-sonli Qarorni, hamda 2021-yil 4-mart kuni 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonni imzolaganliklarini ta’kidlash joizdir.[8] Konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;
- Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash.

Mana shu va shunga o‘xshash yuqorida aytib o‘tilganlar fuqarolik jamiyatini, ya’ni xalqparvar davlatni barpo etishning ijtimoiy va huquqiy asoslari deb bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamiyat>
2. Saydullayev SH.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 232-b.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
4. Saydullayev SH.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 231-b.
5. Odilqoriyev X. Davlat va huquq tarixi. Darslik. Toshkent-2012, - 322-b.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
7. <https://lex.uz/docs/-2938958>
8. <https://lex.uz/docs/-4572953>
9. YR Malikovich. Relations of the religious administration of central asia region with other religious organisation of east during 1940-1980 YEARS. //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology// 17 (6), 3609-3612. 2020 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=agJGf20AAAAJ&citation_for_view=agJGf20AAAAJ:WF5omc3nYNoC
10. PM Юсупов «Бароқхон» ва «мир араб» мадрасаларининг диний муассасаларига кадрлар тайёрлаш тарихидан лавхалар (1940-1960 й. й.) //Life Sciences and Agriculture//. 2020. <https://cyberleninka.ru/article/n/baro-hon-va-mir-arabmadrasalarininig-diniy-muassasalariga-kadrlar-tayyorlash-tarixidan-lavhalar-1940-1960-y-y>